

MAKTAB TA'LIMIDA BADIY ASARLARNI SAMARALI O'QITISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

Masharipova Danaxan Atabekovna

Ichki ishlar vazirligining ixtisoslashtirilgan maktab-internati

Ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Maktab ta'limida badiiy asarlarni o'qitish metodikasi ko'plab muammolar bilan yuzlashadi: o'quvchilarning qiziqmasligi, tahliliy fikrlashning pastligi, metodlarning eskirganligi va amaliy jihatdan integratsiyalashtirilmaganligi. Ushbu maqolada o'qitish metodikasini takomillashtirish yo'llari innovatsion usullar, interfaol texnologiyalar, diferensial yondashuv va o'quvchilarning ijodiy ishtirokini oshirish vositalari tahlil qilinadi. Tadqiqot maktab darslarida qo'llangan metod va texnikalarning samaradorligini eksperimental metodlar yordamida aniqlashga qaratilgan. Natijalar shuni ko'rsatdiki, interfaol metodlar va ijodiy topshiriqlar o'quvchilarda badiiy matnga munosabatni yaxshilaydi, tushunishni chuqurlashtiradi va adabiy salohiyatni rivojlantiradi. Maqola xulosalarida metodik takliflar va amaliy tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar; badiiy asar, o'qitish metodikasi, interfaol metodlar, ijodiy tushunish, o'quvchilarning ishtiroki, diferensial yondashuv.

Bugungi globallashtirish va axborotlashuv jarayonida ta'lim tizimi oldiga o'quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirish, ularning ma'naviy-axloqiy dunyoqarashini boyitish hamda estetik didini shakllantirish kabi muhim vazifalar qo'yilmoqda. Ushbu jarayonda maktab ta'limida adabiyot fanining, xususan, badiiy asarlarni o'qitish metodikasining o'rni beqiyosdir. Badiiy asar orqali o'quvchi nafaqat til boyligini oshiradi, balki hayotiy voqealarni badiiy idrok etish, qahramonlar xarakterini tahlil qilish va muallif g'oyasini anglash ko'nikmalarini ham egallaydi. Maktablarda badiiy asarlarni o'qitishda an'anaviy yondashuvlarning ustunligi o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishini pasaytirishi mumkin. Asar mazmunini faqat qayta hikoya qilish yoki tayyor tahlillar asosida o'rganish o'quvchining mustaqil fikrlashi va ijodiy faolligini yetarli darajada rivojlantirmaydi. Shu bois badiiy asarlarni o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar va innovatsion yondashuvlarni qo'llash zarurati yuzaga kelmoqda. Mazkur ishda maktab ta'limida badiiy asarlarni samarali o'qitish metodikasini takomillashtirish masalalari tahlil qilinadi, o'quvchilarning badiiy matnni chuqur anglashiga xizmat qiluvchi metod va usullar yoritiladi. Shuningdek, dars jarayonida o'quvchilarning faolligini oshirish, tanqidiy va ijodiy fikrlashini rivojlantirishga qaratilgan samarali metodik tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Maktab ta’limida badiiy asarlarni o’qitish jarayoni o’quvchilarning yosh xususiyatlari, qiziqishlari va bilim darajasini hisobga olgan holda tashkil etilishi kerak. Badiiy asar faqatgina matn sifatida emas, balki tarbiyaviy va ma’naviy ahamiyatga ega manba sifatida o’rganilishi lozim. Shu sababli o’qituvchi dars jarayonida o’quvchini faol ishtirok etishga undaydigan metodlardan foydalanishi muhim hisoblanadi. Badiiy asarlarni samarali o’qitishda eng avvalo matn bilan ishlashga e’tibor qaratiladi. Asarni o’qishdan oldin uning mavzusi, muallifi va asosiy g’oyasi haqida qisqacha tushuncha berilishi o’quvchining asarga bo’lgan qiziqishini oshiradi. O’qish jarayonida esa matnni bo’limlarga ajratib o’rganish, muhim joylarini belgilash va tushunarsiz so’zlarga izoh berish yaxshi samara beradi. Bu usul o’quvchilarga asar mazmunini chuqurroq anglashga yordam beradi. Dars davomida savol-javob usulidan foydalanish ham muhim ahamiyatga ega. Oddiy va aniq savollar orqali o’quvchilar asar mazmunini tushungan-tushunmaganini aniqlash mumkin. Shu bilan birga, qahramonlar xatti-harakatiga baho berish, ularning o’rnida bo’lsa qanday yo’l tutishini so’rash o’quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantiradi. Bu esa darsning jonli va qiziqarli o’qitishiga xizmat qiladi.

Badiiy asarlarni o’qitishda interfaol metodlardan foydalanish ham samaradorlikni oshiradi. Guruhlarda ishlash, munozara tashkil etish, kichik sahna ko’rinishlari tayyorlash kabi usullar o’quvchilarning darsga bo’lgan qiziqishini kuchaytiradi. Ayniqsa, asardagi voqealarni hayot bilan bog’lash orqali o’quvchilar badiiy matnning mazmunini yanada yaxshiroq tushunadilar. Zamonaviy texnologiyalardan foydalanish badiiy asarlarni o’qitishda muhim rol o’ynaydi. Audio va video materiallar, slaydlar, elektron darsliklar yordamida darsni tashkil etish o’quvchilarning e’tiborini jalb qiladi. Bu esa an’anaviy darslarga nisbatan samaraliroq natija beradi. Maktab ta’limida badiiy asarlarni samarali o’qitish metodikasini takomillashtirish o’qituvchining to’g’ri yondashuvi, zamonaviy metodlardan foydalanishi va o’quvchilarning faolligini ta’minlashi bilan bog’liq. Shu yo’l bilan o’quvchilarda adabiyotga bo’lgan qiziqish oshadi va ularning fikrlash qobiliyati rivojlanadi.

Badiiy asarlarni o’qitishda o’qituvchining roli juda muhim. O’qituvchi dars davomida faqat tushuntiruvchi emas, balki yo’naltiruvchi bo’lishi kerak. O’quvchini tayyor xulosaga olib kelmasdan, o’zi fikr yuritishiga sharoit yaratish zarur. Shu orqali o’quvchi asar mazmunini chuqurroq anglaydi va o’z fikrini erkin ifodalashni o’rganadi. Asarni tahlil qilish jarayonida murakkab adabiy atamalarni ko’p ishlatish har doim ham foyda bermaydi. Aksincha, oddiy til bilan tushuntirish o’quvchilar uchun qulay bo’ladi. Masalan, qahramonning xarakteri, uning xatti-harakati va ichki kechinmalarini kundalik hayotdagi holatlar bilan solishtirib tushuntirish mumkin. Bu o’quvchiga asarni osonroq qabul qilishga yordam beradi. Badiiy asarlarni o’rganishda yozma ishlarning ham o’rni katta. Qisqa bayon, kichik insho yoki fikr bildirish topshiriqlari o’quvchilarning yozma nutqini rivojlantiradi. Bunda hajm emas, balki

mazmun muhim hisoblanadi. O‘quvchining o‘z fikrini erkin va tushunarli yozishi asosiy maqsad bo‘lishi kerak.

O‘qilgan asarni mustahkamlash uchun uyga beriladigan vazifalar ham o‘ylangan holda berilishi lozim. Masalan, asar bo‘yicha savollarga javob yozish, sevimli qahramoni haqida fikr bildirish yoki asarga munosabatini yozma tarzda ifodalash kabi topshiriqlar o‘quvchining mustaqil ishlashiga yordam beradi. Juda murakkab va ko‘p hajmdagi vazifalar esa o‘quvchini charchatishi mumkin. O‘quvchilarning qiziqishini oshirishda baholash tizimi ham muhim ahamiyatga ega. Faqat xatolarni ko‘rsatish emas, balki o‘quvchining harakatini, fikrini rag‘batlantirish dars samaradorligini oshiradi. O‘quvchi o‘z fikri qadrlanayotganini sezsa, darsga bo‘lgan munosabati ijobiy tomonga o‘zgaradi. Badiiy asarlarni o‘qitishda oddiy, tushunarli va hayotga yaqin metodlardan foydalanish muhimdir. Bu esa o‘quvchilarning adabiyot faniga bo‘lgan qiziqishini oshiradi va ularning ma‘naviy rivojlanishiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi.

Badiiy asarlarni o‘qitishda o‘quvchilarning individual imkoniyatlarini hisobga olish ham muhimdir. Har bir o‘quvchining fikrlash darajasi va asarni qabul qilish usuli turlicha bo‘ladi. Shu sababli dars jarayonida barcha o‘quvchilarni bir xil talab bilan baholash emas, balki ularning harakatini va faolligini inobatga olish kerak. Bu o‘quvchilarda o‘ziga bo‘lgan ishonchni kuchaytiradi.

Asar mazmunini tushuntirishda hayotiy misollardan foydalanish yaxshi samara beradi. O‘quvchilar o‘z hayotida uchraydigan holatlarni asardagi voqealar bilan solishtirganda, matnni tezroq tushunadi. Ayniqsa, tarbiyaviy jihati kuchli bo‘lgan badiiy asarlar o‘quvchilarning xulq-atvoriga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. Dars davomida o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasida erkin muloqot bo‘lishi kerak. O‘quvchi savol berishdan yoki fikr bildirishdan cho‘chimasligi lozim. Shunda dars jonli kechadi va o‘quvchilar asarni chuqurroq anglaydi. O‘qituvchi esa o‘quvchining fikrini tinglab, uni to‘g‘ri yo‘naltirishi muhim. Badiiy asarni qayta o‘qish va muhim joylarini ajratib ko‘rsatish ham foydalidir. Ba‘zi parchalarning dars davomida bir necha marta o‘qilishi asarning mazmunini yaxshiroq tushunishga yordam beradi. Ayniqsa, muhim fikrlar va asosiy g‘oya ifodalangan joylarga alohida e‘tibor qaratilishi kerak. Darsdan tashqari mashg‘ulotlar ham badiiy asarlarni o‘qitishda muhim o‘rin tutadi. Kitobxonlik tadbirlari, adabiy kechalar va kichik musobaqalar o‘quvchilarning adabiyotga bo‘lgan qiziqishini oshiradi. Bunday tadbirlar o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatini rivojlantiradi va ularni mustaqil o‘qishga undaydi.

XULOSA.

Xulosa qilib aytganda, maktab ta‘limida badiiy asarlarni samarali o‘qitish o‘quvchilarning adabiyot faniga bo‘lgan qiziqishini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Badiiy asarni to‘g‘ri va tushunarli usulda o‘rgatish orqali o‘quvchilarning fikrlash doirasi kengayadi, nutqi rivojlanadi va ma‘naviy dunyosi boyiydi. Badiiy asarlarni o‘qitishda faqat an‘anaviy usullarga tayanib qolmasdan, o‘quvchilarni faol ishtirok

etishga undaydigan metodlardan foydalanish zarur. Oddiy savollar, guruhli ishlash, hayotiy misollar va erkin muloqot dars samaradorligini oshiradi. Bu esa o'quvchilarning asarni chuqurroq anglashiga yordam beradi. O'qituvchining yondashuvi darsning muvaffaqiyatli o'tishida hal qiluvchi omil hisoblanadi. O'qituvchi o'quvchini qo'llab-quvvatlasa, uning fikrini qadrlasa va to'g'ri yo'naltira olsa, o'quvchida adabiyotga nisbatan ijobiy munosabat shakllanadi. Badiiy asarlarni samarali o'qitish metodikasini takomillashtirish orqali maktab ta'limida sifatli natijalarga erishish mumkin. Bu jarayon o'quvchilarning nafaqat bilimini, balki tarbiyasi va shaxs sifatida shakllanishini ham ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.2025501.Lanin, B. A. (2020).Metodika prepodavaniya literatury: o'quv xrestomatiya(4-nashr). Moskva: Yurayt nashriyoti.
- 2.Alekseeva, M. A. (2021).Metodika prepodavaniya literatury: amaliy qo'llanma. Moskva: Yurayt.
- 3.Prepodavanie literatury: obrazovatelnye texnologii. (2022). Penza: NMC58 nashriyoti.
- 4.Mašát, M. va Nosková, L. (2023).Innovative Methods of Teaching Literary Education.European Journal of Teaching and Education, 5(1), 34“ 41.
- 5.The Teaching of Literature: Approaches and Methods. (2016).International Journal of Education and Evaluation Research, 2(5), 45“ 52.